

## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 5,5 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 mingtaga yoki 30,3 foizga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 15,3 mingta (4,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 31,0 mingtani tashkil etgan.



*Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3959	3510	859
 Sanoat	6846	6019	1316
 Qurilish	2659	2296	581
 Savdo	8021	6795	1099
 Tashish va saqlash	1212	1077	196
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2811	2333	436
 Axborot va aloqa	518	396	86
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	585	547	80
 Boshqa turlari	8774	8057	803



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**

2019 yilning 1 yanvar holatiga 35,4 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,7 % savdo, 19,3 % sanoat, 11,2 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,5 % qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,5 % axborot va aloqa hamda 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qibray (3579 ta), Zangiota (3575 ta), Toshkent (2538 ta) tumanlari va Angren shahri (2382 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Ohangaron (832 ta), Oqqo'rg'on (868 ta) tumanlari hamda Ohangaron (857 ta) va Nurafshon (872 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, *mingda*.





## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31030 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4,1 ming ta (15,3 %) ga oshgan.


01.01.2018 y.  
26,9 ming

01.01.2019 y.  
31,0 ming

O'tgan yilga nisbatan  
4,1 mingtaga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9 % savdo, 19,4 % sanoat, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,4 % qurilish, 3,5 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 26,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarni eng ko'pi Qibray (3095 ta), Zangiota (3079 ta), Toshkent (2205 ta) va Yuqorichirchiq (1920 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Oqqo'rg'on (733 ta), Ohangaron (739 ta) tumanlari hamda Ohangaron (756 ta) va Nurafshon (808 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**

01.01.2017 y.

• 29,0 ming

01.01.2018 y.

• 26,9 ming

01.01.2019 y.

• 31,0 ming



### Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 5456 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota tumani (536 ta), Qibray (471 ta), Toshkent (370 ta) va Yangiyo'l (346) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron shahrida (117 ta), Piskent (129 ta) hamda Bekobod (144 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

#### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi sanoat (1316 ta), savdo (1099 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (859 ta) va boshqa turlar (803 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (80 ta), axborot va aloqa (86 ta) hamda tashish va saqlash (196 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	01.01.2017y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>2581</b>	<b>100</b>	<b>4188</b>	<b>100</b>	<b>5456</b>	<b>100</b>
Sanoat	442	17,1	1057	25,2	1316	24,1
Savdo	791	30,6	763	18,2	1099	20,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	270	10,5	839	20,0	859	15,7
Qurilish	180	7,0	324	7,7	581	10,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	202	7,8	365	8,7	436	8,0
Tashish va saqlash	77	3,0	156	3,7	196	3,6
Axborot va aloqa	81	3,1	59	1,4	86	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	1,1	81	1,9	80	1,5
Boshqa turlari	509	19,7	544	13,0	803	14,7

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillarkesimida soni, mingda**








## TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 25,7 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,7 mingta, oilaviy korxonalar – 1,6 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17,8 mingta va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 851 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 268 taga yoki 46,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 482 tasi qo'shma korxonalar, 369 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani (104 ta yoki jamidagi ulushi 12,2%), Qibray tumani (87 ta yoki 10,2 %), Yuqorichirchiq tumani (76 ta yoki 8,9 %) va Angren shahri (69 ta yoki 8,1%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bekobod tumani (5 ta yoki 0,6 %), Bo'ka tumani (6 ta yoki 0,7 %) va Bekobod shahri (7 ta yoki 0,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 532 tani (62,5 %), savdoda 119 tani (14,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 74 tani (8,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 61 tani (7,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 9 tani (1,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 15 tani (1,8 %), tashish va saqlashda 19 tani (2,2 %) va qurilishda 21 tani (2,5 %) tashkil

qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 253 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 165 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 79 ta, Rossiya Federatsiyasi – 36 ta, Turkiya Respublikasi – 34 ta, Qozog'iston Respublikasi – 31 ta va Koreya Respublikasi – 17 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Turkmaniston, Pokiston Islom Respublikasi, Singapur Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Avstriya

Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Gretsiya Respublikasi, Isroil davlati va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (153 ta), savdo (40 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (25 ta), qurilish va boshqa faoliyat turlari (11 tadan) hissasiga to'g'ri keladi.




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2017yilyanvar-dekabr		2018 yilyanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Jami</b>	<b>88</b>	<b>100</b>	<b>253</b>	<b>100</b>
Sanoat	64	72,7	153	60,5
Savdo	6	6,8	40	15,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	13	14,8	25	9,9
Qurilish	1	1,1	11	4,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	4	1,6
Tashish va saqlash	-	-	4	1,6
Sog'liqnisaqlashvaijtimoiyxizmatlarko'rsatish	2	2,3	5	2,0
Boshqa turlari	2	2,3	11	4,3



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.**

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 25,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 17,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2,6 mingtasi (10,3 %) Zangiota, 2,6 mingtasi (10,2 %) Qibray, 1,9 mingtasi (7,6 %) Toshkent hamda 1,7 mingtasi (6,5 %) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25,4 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,7 mingtasi (26,6 %) – savdo, 5,9 mingtasi (23,3%) – sanoat, 3,5 mingtasi (13,6 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 mingtasi (9,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2,3 mingtasi (9,0 %) – qurilish, 4,1 mingtasi (1,1 %) – tashish va saqlash, 1,7 mingtasi (0,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 mingtasi (0,4 %) – axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2,8 mingtasi (11,2 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 5,1 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,2 mingtaga yoki 30,5 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (513 ta), Qibray (446 ta) va Toshkent (341 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ohangaron shahri (106 ta), Piskent (116 ta) hamda Bekobod (139 ta) tumanlarida tashkil etilgan.





## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1312 ta), savdoda (1098 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (855 ta) va qurilishda (580 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75 ta), axborot va aloqada (85 ta) hamda tashish va saqlashda (194 ta) tashkil etilgan.




### Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yhatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1 yanvar holatiga 1825 tani tashkil etib, ulardan 1609 tasi yoki 88,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 11,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Ro'yhatdan o'tgan



Faoliyat ko'rsatayotgan




Yangi tashkil etilganlar

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,7 % yoki 638 tasi sanoat, 19,7 % yoki 317 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 281 tasi savdo, 14,6 % yoki 235 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 16 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 13 tasi qurilish, 0,7 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,9 % yoki 95 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

#### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 1120 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan – 1348 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2016 yilda 2581 ta, 2017 yilda 2468 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 1120 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1346 taga tugatish kamaygan.*

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 1120 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 360 tasi (32,1 %) savdo, 223 tasi (19,9 %) sanoat, 153 tasi (13,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 93 tasi (8,3 %) qurilish, 83 tasi (7,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 37 tasi (3,3 %) tashish va saqlashda, 28 tasi (2,5 %) axborot va aloqada, 11 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 132 tasi (11,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018yil		01.01.2019yil		
	Soni (birlikda)	jamiganisbatan, %da	Soni (birlikda)	Jamiganisbatan, %da	Farqi,(+,-)
<b>Jami</b>	<b>2468</b>	<b>100</b>	<b>1120</b>	<b>100</b>	<b>-1348</b>
<i>shujumladan:</i>					
qishloq, o'rmonvabaliqxo'jaligi	164	6,6	153	13,7	-11
sanoat	364	14,7	223	19,9	-141
qurilish	146	5,6	93	8,3	-53
savdo	705	28,6	360	32,1	-345
tashishvasaqlash	57	2,3	37	3,3	-20
yashashvaovqatlanish bo'yichaxizmatlar	203	8,2	83	7,4	-120
axborotvaaloqa	63	2,6	28	2,5	-35
sog'liqnisaqlashvajtimoiyxizmatlarko'rsatish	288	11,7	11	1,0	-277
boshqaturlari	478	19,4	132	11,8	-346


**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+;-)**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 1070 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 863 taga kam kichik korxonalar va mikrofirmalar tugatilgan.


Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 358 tasi (33,5%) savdo, 221 tasi (20,7 %) sanoat, 152 tasi (14,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 93 tasi (8,7 %) qurilishda, 81 tasi (7,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 36 tasi (3,4 %) tashish va saqlashda, 28 tasi (2,6 %) axborot va aloqada, 4 tasi (0,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 97 tasi (9,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %**



Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Zangiota tumanida – 222 ta, Bo'stonliq tumanida – 161 ta, Yuqorichirchiq tumanida – 92 ta, Yangiyo'l tumanida -91 ta hamda Chirchiq shahrida -168 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida faoliyati tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-86-83 (84)